

## CURRENT STATE OF THE STARTUP ECOSYSTEM IN UZBEKISTAN AND THE ROLE OF THE URGUT FREE ECONOMIC ZONE

**Anarbayeva Fotima**

PhD, Associate Professor of the Samarkand branch of Tashkent State University of Economics.

[f.anarbaeva2017@gmail.com](mailto:f.anarbaeva2017@gmail.com)

**Esanov Mirjakhon**

Samarkand branch of Tashkent State University of Economics,

Faculty of Economics, RI-122 group, 4th year student.

[esanovmirjaxon25012003@gmail.com](mailto:esanovmirjaxon25012003@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19624963>

**Abstract.** *This article analyzes the formation of the startup ecosystem in the Republic of Uzbekistan, development trends in the digital economy, and regional opportunities using the example of the Urgut free economic zone. Also, the real state of the startup environment is assessed based on statistical data for 2023–2025 and the results of a survey.*

**Keywords:** *startup, digital economy, investment, innovation, free economic zone, Urgut free economic zone, survey, ecosystem.*

### O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASINING ROLI

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida startap ekotizimining shakllanishi, raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlanish tendensiyalari hamda Urgut erkin iqtisodiy zonasi misolida hududiy imkoniyatlar tahlil qilingan. Shuningdek, 2023–2025-yillar bo'yicha statistik ma'lumotlar va o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida startap muhitining real holati baholangan.*

**Kalit so'zlar:** *startap, raqamli iqtisodiyot, investitsiya, innovatsiya, erkin iqtisodiy zona, Urgut erkin iqtisodiy zonasi, so'rovnoma, ekotizim.*

Bugungi kunda iqtisodiyotning har bir sohasida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar muhim o'rin egallamoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ham startap ekotizimini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va raqamli iqtisodiyotga o'tish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda.

Shuningdek, hududiy rivojlanishda erkin iqtisodiy zonalar muhim ahamiyat kasb etib, ular orqali investitsiyalar jalb qilinmoqda va yangi biznes tashabbuslar shakllanmoqda.


Raqamli iqtisodiyot va startaplarni qo'llab-quvvatlash tizimi: O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida startaplarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, davlat tomonidan soliq imtiyozlari, moliyaviy yordam, inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari yo'lga qo'yilgan. Bu esa startaplar uchun qulay muhit yaratib, innovatsion loyihalar sonining ortishiga xizmat qilmoqda.

Urgut erkin iqtisodiy zonasi – imkoniyatlar va infratuzilma: Urgut erkin iqtisodiy zonasi hududida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur infratuzilma va imtiyozlar yaratilgan. Bu hududda soliq va bojxona preferensiyalari, tayyor ishlab chiqarish maydonlari, logistika qulayliklari mavjud bo'lib, ular startaplarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2023–2025-yillar bo'yicha tahlil: 2023-yilda hududda 167 ta investitsiya loyihasi (915,8 mln AQSh dollari) amalga oshirilgan bo'lsa, 2024-yilda 84 ta loyiha asosida 400 mln dollardan

ortiq investitsiyalar o'zlashtirilgan va 4 mingdan ortiq ish o'rnlari yaratilgan. 2025-yilda esa respublika miqyosida 121 ta startap loyiha 69 mlrd so'm miqdorida moliyalashtirilgan<sup>1</sup>.



1-rasm. Urgut erkin iqtisodiy zonasida ishlab chiqarish dinamikasi.

Mazkur ko'rsatkichlar startap ekotizimining rivojlanayotganini, shuningdek, ishlab chiqarishdan innovatsion yo'nalishga o'tish jarayoni boshlanganini ko'rsatadi.

“O'zbekiston Respublikasida startap ekotizimining hozirgi holati va Urgut erkin iqtisodiy zonasining roli” mavzusida so'rovnoma olib bordik. So'rovnoma Google Forms platformasi orqali tashkil etilib, unda turli soha vakillari ishtirok etdi<sup>2</sup>.

So'rovnoma jami 23 ta savoldan iborat bo'lib, bunda jami 102 nafar respondent ishtirok etdi.

So'rovnoma natijalari tahlili: Mazkur tadqiqot doirasida startap ekotizimining real holatini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma Urgut erkin iqtisodiy zonasi rezidentlari, startap asoschilari, kichik biznes vakillari, investorlar hamda iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida o'tkazildi.

So'rovnoma natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

-respondentlarning ko'pchiligi O'zbekistonda startap ekotizimi rivojlanayotganini, ammo hali to'liq shakllanmaganini ta'kidladi;

-startaplar uchun yaratilgan sharoitlar ijobiy baholangan bo'lsa-da, moliyalashtirish va kadrlar masalasi dolzarb muammo sifatida qayd etildi;

-Urgut erkin iqtisodiy zonasi imkoniyatlari yuqori baholandi, infratuzilma va imtiyozlar muhim omil sifatida e'tirof etildi;

- startaplarning bandlik va iqtisodiy o'sishga ta'siri ijobiy baholandi;

- respondentlar tomonidan raqamli infratuzilmani rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish bo'yicha takliflar bildirildi.

Yuqoridagi so'rovnoma savollaridan ba'zi birlarini quyida tahlili bilan keltiramiz:

1. O'zbekistonda startaplar soni oxirgi yillarda qanday o'zgardi?


<sup>1</sup> <https://ufe.z.uz/> - Urgut erkin iqtisodiy zonasi rasmiy sayti.

<sup>2</sup> [https://docs.google.com/forms/d/1gis7mfnQhIW\\_rOxOJ7jy21hlg4Btu8MgfU\\_yjdTtqG0/edit#responses](https://docs.google.com/forms/d/1gis7mfnQhIW_rOxOJ7jy21hlg4Btu8MgfU_yjdTtqG0/edit#responses) - Google Forms.

Respondentlardan O‘zbekistonda startaplar soni oxirgi yillarda qanday o‘zgarganligini bilish maqsadida so‘rovnoma o‘tkazilganda, ko‘pchilik respondentlar startaplar soni ortib borayotganini ta’kidlagan. Bu esa mamlakatda innovatsion biznes faoliyati rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda startaplar soni oxirgi yillarda qanday o‘zgardi?

102 responses




2-rasm. Respondentlarning O‘zbekistonda startaplar soni oxirgi yillarda qanday o‘zgarganligini bilishi bo‘yicha diagramma.

2. Startap yaratishda eng katta muammo nima?

So‘rovnomaning ushbu qismi shuni ko‘rsatdiki, moliyalashtirish masalasi startaplar uchun eng katta muammo hisoblanadi. Bu esa investitsiya muhitini yaxshilash zarurligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, startap yaratishda tajriba yetishmasligi ham boshqa ko‘rsatkichlarga qaraganda sezilarli darajada to‘siq ekanligini ko‘rsatdi.

Startap yaratishda eng katta muammo nima?

102 responses




3-rasm. Respondentlarning startap yaratishda eng katta muammo nimadalgini bilishi bo‘yicha diagramma.

3. Urgut erkin iqtisodiy zonasi (EIZ)ning qaysi afzalliklari muhim? Ushbu savolni yaqindan tahlil qiladigan bo‘lsak, respondentlar turlicha yondashishgani ko‘rishimiz mumkin.

Avvalo, infratuzilma, yer va bino ajratilishi hamda soliq imtiyozlari hududning asosiy ustunliklari hisoblanadi.

## Urgut EIZning qaysi afzalliklari muhim?

102 responses



4-rasm. Respondentlarning Urgut erkin iqtisodiy zonasi (EIZ) afzalliklarini bilish bo'yicha diagramma.

4. Yurtimizda startap ekotizimini rivojlantirish bo'yicha takliflaringiz? So'rovnoma respondentlar yuqoridagi ochiq savolga turli xil fikrlar bildirishgan. Javoblarni tahlil qilish natijasida respondentlarning asosiy e'tibor qaratgan yo'nalishlari quyidagicha ajralib chiqdi:

**Moliyaviy qo'llab-quvvatlash va investitsiya muhitini rivojlantirish:** Ko'pchilik respondentlar startap loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish, investitsiya imkoniyatlarini yaratish va chet el investorlarini jalb qilishni muhim deb hisoblagan. Bu takliflar startap ekotizimining barqaror rivojlanishi uchun moliyaviy va investitsion qo'llab-quvvatlashning muhimligini ko'rsatadi.

**Ta'lim va amaliy ko'nikmalarni oshirish:** Respondentlar yosh tadbirkorlarni tayyorlash, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, texnologiyalarni joriy etish va ta'lim dasturlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlagan. Shu bilan birga startap ekotizimida innovatsion fikrlash va tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish muhim deb topilgan.

**Startap markazlari va platformalarni yaratish:** Respondentlarning bir qismi startap loyihalari uchun maxsus markazlar, IT-markazlar va platformalar tashkil etishni tavsiya qilgan.

Bu startaplarni qo'llab-quvvatlash, tajriba almashish va innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etishda muhim rol o'ynaydi.

**Yangi ish o'rinlari va bandlikni oshirish:** Respondentlar startap faoliyati orqali ish o'rinlarini yaratish, yoshlarni iqtisodiy jarayonga jalb qilish va bandlikni oshirish zarurligini qayd etgan. Bu esa startap ekotizimi iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini bildiradi.

**Jahon tajribasini o'rganish va amaliyotga joriy etish:** Respondentlar shuningdek, xorijiy tajribani o'rganish va mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish orqali startap ekotizimini yanada rivojlantirish mumkinligini ta'kidlagan.

Mazkur natijalar startap ekotizimining rivojlanishida mavjud muammolar bilan birga katta imkoniyatlar ham mavjudligini ko'rsatadi.

### XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida startap ekotizimi izchil rivojlanib borayotgan bo'lib, bunda erkin iqtisodiy zonalardan biri bo'lgan Urgut erkin iqtisodiy zonasi ham muhim o'rin tutadi. Statistik ma'lumotlar va so'rovnoma natijalari startaplar iqtisodiy o'sish, bandlik va innovatsion rivojlanishda muhim rol o'ynayotganini tasdiqlaydi.

Kelgusida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish hamda innovatsion muhitni takomillashtirish orqali startap ekotizimini yanada rivojlantirish imkoniyati yaratish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-noyabrdagi PQ-5278-son “Samarqand viloyatining Urgut tumanini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-357-son “Startap loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plami. – Toshkent, 2023–2025.
4. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Investitsiya loyihalari bo‘yicha rasmiy hisobotlar. – Toshkent, 2023–2025.
5. Ries E. The Lean Startup: How Today’s Entrepreneurs Use Continuous Innovation to Create Radically Successful Businesses. – New York: Crown Business, 2011. – 336 p.
6. Blank S., Dorf B. The Startup Owner’s Manual: The Step-By-Step Guide for Building a Great Company. – Pescadero: K&S Ranch Press, 2012. – 608 p.
7. Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari. – 2026-yil.

**Internet manbaalari:**

8. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. – <https://lex.uz>
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – <https://stat.uz>
10. IT Park Uzbekistan. – <https://it-park.uz>
11. Urgut erkin iqtisodiy zonasi rasmiy sayti. – <https://ufez.uz/>
12. [https://docs.google.com/forms/d/1gis7mfnQhIW\\_rQxOJ7jy21hlg4Btu8MgfU\\_yjdTtqG0/edit#responses](https://docs.google.com/forms/d/1gis7mfnQhIW_rQxOJ7jy21hlg4Btu8MgfU_yjdTtqG0/edit#responses) – Google Forms.